

Izoxlar:

1. Oliy ta'lim muassasasi ixtisoslik fanlarining dasturlarini ishlab chiqishda kadrlar buyurtmachilarining talablarini e'tiborga oladi.
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari qo'shimcha fanlar blokining soatlari hisobiga, harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligini ta'minlash uchun Ilmiy kengashning qarori bilan foydalaniladi.
3. O'quv reja asosida oliy ta'lim muassasasi har yili ishchi o'quv rejasini tuzadi. Bunda oliy ta'lim muassasasiga talabalar yuklamasining haftalik hajmini saqlagan holda o'quv fanlari bloki hajmini 5 foizgacha, bloklar tarkibidagi fanlar hajmini 10 foizgacha o'zgartirish hamda auditoriya yuklamasining umumiy hajmini saqlagan holda, ayrim semestrlarda haftalik yuklamalar hajmini erkin belgilash huquqi beriladi.
4. Talaba bilimini baholash zamonaviy shaffof va adolatli usullardan foydalanilgan holda o'quv jarayoni davomida amalga oshiriladi
5. Bitiruv malakaviy ishini bajarish muddatlari tarkibiga uni himoya qilish ham kiritiladi.
6. Xorijiy til fanining oxirgi bitiruvchi kurslar uchun qo'shimcha fanlar bloki va tanlov fanlari soatlari hisobidan har haftada 2 soatdan "Amaliy ingliz tili" fani o'qitiladi.
7. *Jismoniy tarbiya va sport" fani tarkibida "Valeologiya asoslari" kursidan 10 soat hajmda ma'ruza, 8 soat hajmda amaliy mashg'ulot o'qitilishi ko'zda tutiladi.
8. O'quv rejaga kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari va laboratoriya ishlari oliy ta'lim muassasasi hamda bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
9. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Xaftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy ta'lim	37	1-10	
Malaka amaliyoti	10	5,8,10	
Attestatsiyalar	10	1-10	Bitiruv malakaviy ishi (loyihasi)ni himoya qilish yoki ixtisoslik fanlaridan davlat attestatsiyasi
Bitiruv malakaviy ishi	5	10	
Ta'til	142	1-10	
JAMI	204		

Ishchi o'quv reja institutning 2024-yil " 3 " . 07 dagi 16 -sonli ilmiy kengashida tasdiqlangan.

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

Q.Inoyatov

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

T.Jo'rayev

Sirtqi bo'limi boshlig'i

V.Turdaliyev

MKQM kafedrasi mudiri

Sh.Jo'rayev